Materiallar to'plami · Conference Proceedings
"ZAMONAVIY TADQIQOTLAR VA BARQAROR RIVOJLANISH" respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi
04 August 2026
UDK 811.512.133
FILOLOGIYA

XITOY VA O‘ZBEK TILLARIDA EKOTURIZM TERMINLARINING HOSIL BO‘LISHIGA TA’SIR ETUVCHI OMILLAR

Madinaxon Raxim qizi Sobirova*
Toshkent davlat Sharqshunoslik universiteti Toshkent, O‘zbekiston
✉ madinakhon.sobirova@icloud.com

ANNOTATSIYA

Mazkur tezis xitoy va o‘zbek tillaridagi ekoturizm terminlarining hosil bo‘lishiga ta’sir etuvchi omillarni chog‘ishtirma jihatdan tahlil qilishga bag‘ishlangan. Tadqiqotda terminlarning shakllanishiga ta’sir ko‘rsatuvchi lingvistik va ekstralingvistik omillar tahlil qilindi. Xitoy va o‘zbek tillaridagi ekoturizm terminlari misolida ekologik siyosat, xalqaro terminologiya, tilning ichki imkoniyatlari hamda termin yasash usullarining terminologik tizim rivojiga ta’siri aniqlandi. Olingan natijalar ekoturizm terminologiyasining shakllanish jarayonini yoritish hamda xitoy va o‘zbek tillaridagi terminologik tizimlarni chog‘ishtirma o‘rganish uchun muhim ilmiy asos bo‘lib xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar

ekoturizm terminlari, termin hosil bo‘lishi, lingvistik omillar, ekstralingvistik omillar, terminologiya, xitoy tili, o‘zbek tili, chog‘ishtirma tahlil.

DOI: 10.5281/zenodo.21743153

KIRISH

Ekoturizm terminologiyasi ekologiya, turizm va atrof-muhitni muhofaza qilish sohalarining rivojlanishi bilan uzviy bog‘liq holda shakllanib bormoqda. Mazkur terminlarning hosil bo‘lishiga tilning ichki imkoniyatlari bilan bir qatorda ekologik siyosat, xalqaro hamkorlik, ilmiy-texnik taraqqiyot hamda barqaror rivojlanish konsepsiyasi kabi omillar ham ta’sir ko‘rsatadi[1, B. 57]. Xitoy va o‘zbek tillarida ekoturizm terminlarining shakllanish jarayonini chog‘ishtirma tahlil qilish terminologik tizimlarning o‘ziga xos jihatlarini aniqlash imkonini beradi[2, B. 34].

Ekoturizm terminlarining hosil bo‘lishiga ekologik, ijtimoiy va lingvistik omillar ta’sir ko‘rsatadi. Xitoy tilida ekologik siyosatning rivojlanishi natijasida 生态旅游 (shēngtài lǚyóu) – *ekoturizm*, 生态文明 (shēngtài wénmíng) – *ekologik sivilizatsiya*, 绿色发展 (lǜsè fāzhǎn) – *yashil rivojlanish*, 可持续发展 (kě chíxù fāzhǎn) – *barqaror rivojlanish* kabi terminlar faol qo‘llanila boshladi. Ushbu terminlarning shakllanishi Xitoyda ekologik muhofaza siyosati va barqaror rivojlanish strategiyasining amaliyotga tatbiq etilishi bilan bevosita bog‘liq.

O‘zbek tilida esa ekoturizm terminologiyasining shakllanishida xalqaro terminologiya va tarjima jarayoni muhim omillardan biri hisoblanadi. Jumladan, **ekoturizm**, **ekologik monitoring**, **barqaror rivojlanish**, **ekologik ta’lim**, **rekreatsion hudud** kabi terminlar xalqaro ilmiy adabiyotlar va normativ hujjatlar orqali terminologik tizimga kirib kelgan. Shu bilan birga, **qo‘riqxona**, **milliy bog‘**, **tabiiy yodgorlik**, **tabiiy resurslar** kabi terminlar milliy til birliklari asosida shakllangan.

Xitoy va o‘zbek tillarini chog‘ishtirish shuni ko‘rsatadiki, terminlarning hosil bo‘lishiga ta’sir etuvchi omillar har ikki tilda bir xil emas. Xitoy tilida yangi terminlar ko‘proq tilning ichki imkoniyatlari asosida yaratilsa, o‘zbek tilida xalqaro terminlarni o‘zlashtirish va tarjima qilish jarayoni faolroq kuzatiladi[3, B. 12]

Masalan, 生态修复 (shēngtài xiūfù) – *ekologik tiklash*, 环境监测 (huánjìng jiāncè) – *ekologik monitoring*, 低碳旅游 (dītàn lǚyóu) – *kam uglerodli turizm* kabi terminlar ekologik yo‘nalishlarning rivojlanishi natijasida yuzaga kelgan bo‘lsa, o‘zbek tilida ularning muqobillari asosan tarjima yoki terminologik moslashtirish orqali qo‘llanila boshlagan.

Natijada ekoturizm terminologiyasining shakllanishi nafaqat tilning ichki qonuniyatlari, balki ekologik siyosat, xalqaro ilmiy hamkorlik, barqaror rivojlanish konsepsiyasi hamda turizm sohasidagi zamonaviy ehtiyojlar bilan ham uzviy bog‘liqligi aniqlandi.

Ekoturizm terminlarining hosil bo‘lishiga ilmiy tadqiqotlar va normativ hujjatlar ham sezilarli ta’sir ko‘rsatadi[4, B. 32]. Xitoyda ekologik muhofaza va tabiiy resurslardan oqilona foydalanishga oid davlat dasturlarining qabul qilinishi natijasida 生态修复 (shēngtài xiūfù) – *ekologik tiklash*, 国家湿地公园 (guójiā shīdì gōngyuán) – *milliy botqoqlik bog‘i*, 自然教育 (zìrán jiàoyù) – *tabiiy ta’lim*, 生态安全 (shēngtài ānquán) – *ekologik xavfsizlik* kabi terminlarning qo‘llanish doirasi kengaydi. Mazkur birliklarning paydo bo‘lishi ekologik boshqaruv tizimining rivojlanishi bilan bevosita bog‘liq[5, B. 89].

O‘zbek tilida ham ekoturizm terminologiyasi ekologiya va tabiatni muhofaza qilish sohasidagi me’yoriy hujjatlar, ilmiy tadqiqotlar hamda xalqaro hamkorlik ta’sirida boyib bormoqda. Jumladan, **ekologik audit**, **ekologik ekspertiza**, **ekologik monitoring**, **tabiiy hudud**, **biosfera rezervati** kabi terminlar so‘nggi yillarda ilmiy va amaliy muomalada faol qo‘llanilmoqda. Bu esa ekoturizm terminologiyasining zamonaviy ekologik siyosat va xalqaro tajriba bilan uzviy bog‘liqligini ko‘rsatadi[6, B. 13,].

Tahlil natijalari shuni ko‘rsatdiki, har ikki tilda yangi terminlarning paydo bo‘lishi jamiyat ehtiyojlari va ekologik muammolarning dolzarblashuvi bilan chambarchas bog‘liq. Biroq terminlarning shakllanish mexanizmlarida farq kuzatiladi: xitoy tilida yangi tushunchalar asosan mavjud til birliklarini birlashtirish orqali ifodalansa, o‘zbek tilida xalqaro terminlarni o‘zlashtirish, tarjima qilish va milliy terminlar bilan uyg‘unlashtirish jarayoni faolroq namoyon bo‘ladi.

XULOSA

Tadqiqot natijalari xitoy va o‘zbek tillarida ekoturizm terminlarining hosil bo‘lishi tilning ichki qonuniyatlari bilan bir qatorda ekologik, ijtimoiy va xalqaro omillar ta’sirida amalga oshishini ko‘rsatdi. Xitoy tilida terminlarning shakllanishida milliy til vositalari va komponentlarning birikishi ustunlik qilsa, o‘zbek tilida xalqaro terminlarni o‘zlashtirish, tarjima qilish hamda milliy til birliklari asosida yangi terminlar hosil qilish jarayoni faolroq kuzatildi. Chog‘ishtirma tahlil natijasida har ikki til terminologik tizimining o‘ziga xos xususiyatlari hamda umumiy rivojlanish tendensiyalari aniqlandi. Olingan natijalar ekoturizm terminologiyasini tizimli o‘rganish, ikki tilli terminologik lug‘atlar yaratish va keyingi chog‘ishtirma tadqiqotlarni rivojlantirish uchun ilmiy asos bo‘lib xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Buckley, R., & Ollenburg, C. (2011). Trends and lags in the use of ecotourism terminology in the scholarly and popular press. Tourism Recreation Research, 36(3), 307–309. https://doi.org/10.1080/02508281.2011.11081677
2. Choi, H. C. (2016). Sustainable Tourism. In Sustainable Tourism (pp. 916–917). https://doi.org/10.1007/978-3-319-01384-8_193
3. Weber, A. S. (2024). Disambiguation of the terminology of sustainable tourism and ecotourism. In Lecture notes in networks and systems (pp. 465–471). https://doi.org/10.1007/978-3-031-74828-8_40
4. Hasanova G. Turizm terminologiyasining tarjimasi: O‘zbek va rus tillari misolida. – Toshkent: O‘zbekiston Milliy Universiteti, 2019. – 54 – 56 b.
5. Turg‘unov R. Turizm va ekologiya: Ekoturizm atamalari va alarming rivojlanishi. – Samarqand: Samarqand davlat universiteti. – 2017. – 68 b.
6. 李艳. 中国生态旅游术语的发展：语言学视角. – 北京: 北京语言文化大学出版, 2003. – 177页.